

"Tasdiqlayman"
"Qashqadaryo suv ta'minoti"
MCHJ bosh muxandisi
T. Yakubov

" " 2022 y.

"Kelishilgan"
Qashqadaryo viloyati hokimligi
yagona buyurtmachi xizmati injiniring
kompaniyasi boshlig'i
A. Normomurov

" " 2022 y.

"Kelishilgan"
Qashqadaryo viloyati Qurilish
bosh boshqarmasi boshlig'i
Z. Zokirov

" " 2022 y.

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani "Chambil" MFY hududidagi axolini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida Dehqonobod tumanida katta maydon suv quvuridan Chambil MFY ga ichimlik suvi tortish suv yig'ish inshooti qurish va gusak o'rnatish loyihasi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

TE X N I K T O P S h I R I Q

T/R	Asosiy nomi ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
1	Loyihaviy obekt nomi	Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani "Chambil" MFY hududidagi axolini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun
2	Qurilish joyi	Dexqonobod tumani "Chambil" MFY
3	Buyurtmachi	Qashqadaryo viloyati hokimligi yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi
4	Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun asos.	Dexqonobod tuman hokimlining 2022 yil 29 sentabrdagi 01/507-sonli xati
5	Qurilish turi	Yangi qurilish
6	Moliyalashtirish manbai	Maxalliy budjet
7	Qurilishning taxminiy qiymati, mln.so'm.	Loyihani taxminiy hisobiy qiymati. 1,0 mlrd.so'm. Ob'ekt qiymati loyiha ishlari bajarilgandan so'ng yakuniy ekspert hisobiga asosan aniqlanadi.
8	Loyiha tashkilotining nomi-bosh loyihachi	Tanlov savdolari asosida belgilanadi
9	Ishchi loyihaning tarkibi Bosimli quvur	Ishchi chizmalar quyidagi tarkibda ishlab chiqilsin. -qisqa tushuntiruv yozuvi. -smeta hujjatlari. -bosh reja Nasos stansiya binosi -Gidrotexnik inshootlar chizmalari -elektr liniyasi va jihozlari chizmalari Ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tashkilotlariga taqdim etish uchun buyurtmachiga bir nusxada (qog'oz va elektron shakllarda) taqdim etiladi. Ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng ShNQ 1.03.01-20 ga asosan buyurtmachiga ishchi loyihalar 3 nusxadan qog'ozga chop etilgan holda va bir nusxada electron disk ko'rinishida taqdim etiladi.
10	Smeta-narxli hujjatlarni tayyorlash uslubiga qo'yiladigan talablar.	Obektning boshlang'ich qiymati ShNQ 1.03.01-08 bo'yicha, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyuldagi 261-sonli va 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qaroriga va qonunchilikda belgilangan tartiblar asosida, joriy narxlarda aniqlansin. Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan ish hajmlari, qurilish qilish, montaj qilish va maxsus ish turlari, loyihada qabul qilingan yechimlarga mos kelishi ta'minlansin. Smeta hujjatlarini tasdiqlangan standartlarga muvofiq, rejalashtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keladigan narxlar bilan amaldagi narxlash tartibiga muvofiq ishlab chiqilsin. Obektlarning hisob-kitoblar natijasida aniqlangan, joriy narxlardagi qurilish qiymatlari asoslangan va ishonchli bo'lishi ta'minlansin. Loyiha hujjatlari bo'limlari tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy xuquqiy bazaga muvofiq bo'lishi kerak. Smetalarni joriy narxlarda shakillantirish jarayonida qurilish mahsulotlari mehnat resurslari, mashina va mexanizmlar uchun asosiy narxlar va qiymatlar quyidagi qiymatlarda qo'llanilsin. Davlat statistikasi qumitasi rasmiy saytiga (Stat.uz)

T/R	Asosiy nomi ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
		joylashtirib boriladigan <ol style="list-style-type: none"> 1. O'rtacha soatlik ish haqi miqdori mintaqalarning o'rtacha statistik ma'lumotlari asosida. 2. Mashina va mexanizimlardan foydalanish uchun o'rtacha narxlar hamda sarflar miqdori o'rtacha statestilk ma'lumotlar asosida. 3. Qurilish materiallar, buyumlar konstruksiyalar va jihozlar birligiga harajatlarning o'rtacha qiymati tayyorlovchi zavodlarning ulgurji sotish narxlari, qurilish materiallari berjalari va yarmarkalaridagi kataloglari asosida 4. Pudratchining boshqa xarajatlari 19.54% olinsin. Buyurtmachining boshqa xarajatlari va sarflari buyurtmachining ma'lumotlari asosida shakillantirilsin.
11	Loyihalashtirilgan obektning tarkibi.	Ulanish nuqtasi d=219mm po'lat quvur ulash texnik shart orqali. "Xoji Ibrohim" qishlog'iga po'lat quvuridan tarmoq tortish L=9200metr aniqligi loyiha asosida aniqlansin. Suv saqlash inshooti qurish nasos stansiya, bosimli tarmog'i gidrotexnik inshootlari elektr liniyasi va nasos stansiya jixozlari
12	Yongin xavfsizligi bo'limini ishlab chiqish talablari.	Loyihaviy va konstruktiv yechimlar zilzilabardoshlik, portlash hamda yong'in xafsizligi talablarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bino perimetri bo'ylab beton yo'lak o'rnatilishi va hududdan yong'in suvlari chiqib ketishi ta'minlanishi nazarda tutulsin. Tashqi chiqindi tashlash maydonchasi va metall chiqindi quttisi o'rnatilishi belgilansin. Tashqi yoritish tizimi o'rindiqlar va yengil konstruksiyali nazorat o'tish punkiti nazarda tutulsin. Tashqi tushiq ishlari zamonaviy yengil mahalliy yengil materiyallardan tayyorlanishi nazarda tutilsin. Ob'ektda yong'inga qarshi yo'laklar bo'lishi va yong'inga qarshi qutti o'rnatilishi belgilansin.
13	Dizayn va qurilish jarayonida tajriba-konstruktorlik va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish talablari.	Talab qilinmaydi.
14	Namoyish materiallarini bajarish talablari.	Talab qilinmaydi.
15	Hududni obodonlashtirish va kichik arxitektura shakillariga quyilgan ta'lablar	Talab qilinmaydi.
16	Tashqi transport aloqalari va ta'minot sxemasi.	Talab qilinmaydi.
17	Qurilishning belgilangan muddatlari (yillar).	2022-yil dekabr
18	Loyiha va qurilishning maxsus shartlari.	Normativ hujjatlar va KMK va ShNQ talablariga muvofiq
19	Ishchi hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish (loyiha tashkiloti)	Hukumat va foydalanuvchi tashkilot xatiga ko'ra

T/R	Asosiy nomi ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
	tomonidan qilingan xatolarni tuzatishdan tashqari).	
20	Loyiha tashkiloti (POS) loyihasini ishlab chiqish.	Qurilishni tashkil etish loyihasi to'liq hajimda ShNQ 3.01.01-03 ga mos ravishda ishlab chiqilsin.
21	Qurilishning mualliflik nazorati.	Mualliflik nazoratini olib borish loyixa tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan grafik asosida olib boriladi. Ob'ektda pudratchi yoki buyurtmachi tomonidan muammoli masala va taklif kiritilishi ko'tarilganda loyixachining ob'ektga borishi zarur va shart xisoblanadi.
22	Loyiha hujjatlari berilgan nusxalar soni, bo'limlarning tarkibi va mazmuni bo'yicha ko'rsatmalar.	Loyiha-smeta hujjatlari mijozga miqdori bo'yicha beriladi: Ishchi loyiha - 3 nusxada; Joriy narxlarda resurslar ro'yxati va mahalliy-resurs varaqasi - 1 nusxa. Resurs varaqasi va elektron versiyada mahalliy ruyxat - 1 disk
22	Atrof-muhitni muhofaza qilish talablari.	SanPiN №0292-11 va amaldagi KMK talablariga muvofiq AMTKB loyihasi i/ch alohida shartnoma asosida.
23	Qushimcha talablar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bajaruvchi ekspertizadan o'tkazish jarayonida loyiha yechimlari to'g'ri qo'llanilganligi bo'yicha himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish 2. Loyiha tashkiloti ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarini manfaatdor tashkilotlar bilan kelishishni ta'minlaydi. (arxitektura va qurilish boshqarmasi va h.k)
24	Loyixa tashkilotining majburiyatlari	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qarorini 4-ilovasi II-bulim 8-punkti hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda PQ-43-sonli qaroriga asosan loyihalash jarayonida yul quyilgan hato va kamchiliklarga bosh loyiha tashkiloti tomonidan javobgar etib kursatilganligi sababli loyiha ishlari uchun uzaro tuzilgan shartnomaning 70%gacha miqdoridagi jarima qullanilishini va bosh pudratchiga yetkazilgan zararni (buzib olish ishlari) o'z xisobidan qoplab beradi.

Qashqadaryo viloyat hokimligi
“Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring
kompaniyasi loyiha bo'lim boshlig'i



T. Turayev